

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TOLERANTLIKNI TARBIYALASH

Kurbanova Yulduz Djumaevna

TerDPI maktabgacha ta`lim metodikasi kafedrasи o`qituvchisi,
ykurbonova1961@gmail.com.tel.93-635-29-41

Annotatsiya: Maktabgacha yosh davrida bolalarning jismoniy, aqliy va ahloqiy jihatdan rivojlanish jarayoni kuzatiladi.Ushbu yoshda bolalarda do`stlik, vatan-parvarlik, kattalar va tehdoshlarga hurmat kabi sifatlar rivojlanadi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida mashg`ulotlar va turli tadbirlarni tashkil etish orqali bolalarda tolerantlik shakllantiriladi.Bolalalardagi beg`rikenglik, mehnatsevarlik vatanparvarlik kabi sifatlar oila bilan hamkorlikda olib borilganida yaxshi samara beradi.

Mazkur maqolada bolalardagi tolerantlikni tarbiyalashda pedagoglarning oila bilan hamkorligi haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: ahloqiy tarbiya, bag`rikenglik xislatlari, toletarantlik tarbiyasi, ijtimoiy muhit, vatanparvarlik, ota-onalar tajribasi.

Maktabgacha yosh davrida bolalar har tononlama rivojlanadi, bolalar bu davrda nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan balki axloqiy jihatdan ham rivojlanishda davom etadi. Bu davrda bolalar dunyo haqidagi bilimlarni o`z atrofidagi kishilardan, yani tarbiyachilar, ota-onalari hamda tengdoshlaridan o`rganadilar.

Axloqiy tarbiya vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odoblilik, insonparvarlik, bag`rikenglik xislatlarining rivojlanishini ko`zda tutuvchi jarayon hisoblanadi. Bolalarda bu kabi ijobiy sifatlarni maktabgacha ta`lim tashkilotlarida olib boriladigan turli mashg`ulotlar, o`yinlar, turli tadbirlar orqali tarbiyalash amalga oshiriladi.

Bolalarda axloqiy tarbiyaning bir bo`lagi sifatida tolerantlik maktabgacha ta`lim tashkilotlari tarbiyachilari va oila bilan hamkorlik asosida shakllanadi.

Tolerantlik - bu insonning o`zini o`rab turgan ijtimoiy farqlarga ijobiy munosabatda bo`lish qobiliyati. Toleranlik-bu bag`rikenglik tushunchasi...

D.N.Ushakov tomonidan tahrir qilingan “Rus tilining izohli lug’ati”da “bag`rikenglik” toifasi “tolerantlik ” toifasi bilan to’liq birlashtirilgan.

1995 yilda YUNESKO Bosh konferensiysi tomonidan qabul qilingan bag`rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida “Bag`rikenglik – tinchlik imkonini yaratadigan va urush madaniyatidan tinchlik madaniyatiga olib boradigan narsadir” deyiladi. Deklaratsiyada bag`rikenglik – “dunyomiz madaniyatlarining boy xilma-xilligini hurmat qilish, qabul qilish va to’g’ri tushunish, inson o’ziga xosligini o’zini namoyon qilish va namoyon etish shakllari, dogmatizmni rad etish, haqiqatni mutlaqlashtirish va xalqaro huquqiy hujjalarda belgilangan me’yorlarni tasdiqlash” deb ta’riflanadi.

Tolerantlik tarbiyasi oiladan boshlanadi. Bola birinchi tarbiyani oilada olishini eslasak tolerantlikni tarbiyalashda oilaning asosiy rolini ko`ramiz. Bunda ota-onalar o`zlarining

bolaga bo'lgan munosabati va uning o`zini o`rab turgan tevarak-atrofga munosabati, bolaning dunyoqarashi va munosabatining bir qismiga aylanishi tushunishlari muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Oilaning katta yoshli avlodni va ota –onalar o'zlarining tajribalari orqali bolalarni odob - axloq qoidalari bilan tanishtiradilar. Bolani o'z g'oyalariga ko'ra tarbiyalashda ota-onalar bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Har bir inson yosh inqirozlari zanjiridan o'tadi. U o'zgaradi, dunyo haqida yangi narsalarni o'rganinib boradi. Bu uning kamolotiga va ijtimoiylashuviga xizmat qiladi. Bola rivojlanishining o'tish jarayonlari kattalarga mas'uliyat yuklaydi va katta sabr-toqat talab qiladi.

Shuning uchun ota-onalar bolalarda o`zini o`rab turgan ijtimoiy muhitga to`g`ri munosabatni tarbiyalashda asosiy vazifani bajaruvchi ekanligini unutmasliklari lozim.

Kichik yoshli bola ko'rgan narsasiga taqlid qiladi, boladagi eng asosiy xususiyatlardan biri uning qiziquvchanligi. Bolaning ayni shu xususiyati o`zi bilgan va bilmagan narsalari bilan munosabatda bo`lishga chorlaydi. Bolalar kichikligida yaxshini yomondan, yomonni yaxshidan ajrata olmaydi. Bu davrda bolaning kim ekanligi va turli vaziyatlarda o`zini qanday tutishini bilish qiyin. Maktabgacha yosh davrida bolalar inqirozlarni boshidan kechiradilar, o`zlarining g`oyalarini tushunmasada fikrlarini "o`tkazishga" intiladilar. Shu bilan bir vaqtida bolalarda hali qa`tiyatlilik etarli bo`lmaydi. Bola o`zini tasdiqlash yo'llarini qidiradi: "Men qo'rqaman.., men kuchli bo'lishim kerak..". Bu holatda bola qaysi fikri to`g`ri ekani haqida aniq to`xtamga kelishda qiynaladi, bunda tarbiyachi va ota-onalar bolaning eng yaqin maslahatchisiga aylanishi juda muhim. Bolalarning maktabgacha yoshida uni o`rab turgan mikromuhiti kehgayadi, u makabgacha ta`lim tashkilotiga qatnay boshlaydi va albatta undagi sharoitlariga moslashishi, bolalar bilan do'stlashib ololishida ham biroz qiyinchiliklarga uchrashi tabiiy. Maktabgacha ta`lim tashkilotida bolalar turli vaziyatlarga duch keladilar. Jumladan, maktabgacha ta`lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari oiladagi turli muhitda tarbiylanganligi, turli millat farzandlari ekanligi (har bir millatning o`z tili, urf-odatlari), maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalar tarbiyachi va boshqa pedagoglar bilan munosabatlar bolalarni biroz sarosimaga soladi albatta. Bolalardagi bu holatdan chiqishda, ularda do`stona munosabat, insoniylik va bag`rikenglikni shakllantirishda tarbiyachining oila bilan hamkorligi muhim o`ringa chiqadi.

Maktabagacha ta`lim tashkilotida bolalarni bag`rikenglik tamoyili asosida rivojlantirish davom etadi. Maktabgacha yoshda bolalarda his-tuyg`u rivojlanadi. Bolalarda o`zidan kichik bo`lgan bolalarga nisbatan e`tiborliroq bo`lish, kattalarga hurmat kabi sifatlar turli mashg`ulorlar jarayonida shakllantililadi.

Maktabgacha ta`lim tasshkilotlaridagi guruhlarda turli millat farzandlari jamlanishi mumkin. Tarbiyachi va ota-onalarning vazifasi - bolalarni turli millatlarning urf-odat va qadriyatlarini hurmat qilishga o`rgatish, ozaro bir-birini tushunish, kichik yoshdagagi bolalarga g`amho`rlik va katta yoshli kishilarga hurmat bilan munosabatda bo`lish kerakligi haqida tushuncha berish, bu boradagi bilimlarini mustahkamlashdan iboratdir.

Oilada ota-onalar farzandlariga oiladagi keksa yoshli boba va buvilarni hurmat qilish, ularga g`amho'rlik qilish, ularga biror yumushlarini bajarishda yaqindan yordam berishlarini o`rgatib boradilar.

Shuning bilan bir qatorda maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyachilarini va ota-onalar oldida bolalarni turli millatlarning madaniyati va an'analari bilan tanishtirish, ijtimoiy-etnik omillarning bolalarga ta'sirini tuzatish va ularda dunyo fuqarolari tuyg'usi va ongini shakllantirish vazifasi turadi. Bunday holda, albatta, tarbiyalanuvchilarining qiziqishlarining tanlanganligini, mintaqaning o'ziga xosligini va aholi geografiyasini hisobga olish kerak. Til madaniyatlar bilan tanishishda, o'zaro tushunish va boyitish muammolarini hal etishda, millatlararo muloqot madaniyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib maktabgacha ta`lim muassasalari hamda oilada bolalar bilan insoniylik, bag`rikenglik mavzularida suhbatlar olib boorish, turli o`yinlar tashkil etish va kitob o`qib berish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Maktabgacha ta`lim muassasalarda bolalarda bag`rikenglik xislarini tarbiylash maqsadida mavzuga doir ertaklar o`qib berish, sh`erlar yodlash, ertaklarni sahnalashtirish, ota-onalar maktabgacha ta`lim tarbiyachilarini va tarbiyalanuvchilar ishtirokida “O`zbekiston umumiyy uyimiz”, “Buvijonimdan eshitgan ertaklarim” kabi tadbirlarni o`tkazilishi ijobiy samara beradi.

Turli xalqlar madaniyati bilan bog'liq qadriyatlarni bolalar ongiga singdirish orqali bolalar dunyoqarashini shakllantirishni ta`minlashda mashg`ulotlardan tashqari sayr vaqtida bolalar tomonidan boshqa xalqlar haqida iloji boricha ko'proq bilish har qanday yoshdagi millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirishning asosidir.

O'yin bolalar hayotining eng muhim sohasi bo'lib, u mehnat, bilim, san'at, sport bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarda milliy ongni, millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish uchun zarur hissiy sharoitlarni ta'minlaydi.

O'yinlarda bolalar bilimlarini boyitibgina qolmay, balki hayotda zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar, muloqot qilishni o'rganadilar. Pedagogik amaliyot xalq o'yinlaridan millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida foydalanish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarixga sayohat (muzeylarga sayohat) qilishlari mumkin, ona yurt, qiziqarli insonlar, hunarmandlar bilan tanishish, “Bizning qadriyatlarmiz” mavzusida turli millatga mansub oilalar (ota-onsa va bolalar) ishtirokida tanlovlari, bayram ertaliklari o`tkazish millatlararo bag`rikenglik, diniy bag`rikenglik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yosh avlodni tarbiyalashda samarali xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Ҳасанбоева О. ва бошқалар. "Оила педагогикаси" - Тошкент." Алоқачи", 2007 й.
2. Kurbonova Yu.DJ. Maktabgacha ta`lim muassasalarida badiiy adabiyot orqali bolalarning ma`naviy dunyoqarasini shakllantirish. Международная научно-образовательный электронный журнал. "Образование и наука в XXI веке". Выпуск №32 (том 4) (ноябрь.2022) 125-126b.
- 3.Imomova M.O. Oilada bolalarni ma`naviy-axloqiy tarbiylashda milliy qadriyatlar-T.Fan, 1995 -226 b.
4. Mamatqulova Sh. Bolalarda aqliy qobiliyatni triz ta`limi texnolgiyasi asosida rivojlantirish.Международная научно-образовательный электронный журнал. "Образование и наука в XXI веке". Выпуск №42-3 (сентябрь.2023) (81-84) .
5. Gulnora Ulashovna Xolboeva Bolalarni maktab ta`limiga tayyorgarligini shakllantirishning mazmuni, pedagogik-psixologik talablari.Academic research in educational scences,3 (3),792-794
- 6.Altibaeva Gulbaxor.Oilada maktabgacha yoshdagi bolalarga ota-onaning tolerantlik darajasini aniqlashning ijtimoiy-psixologik tahlili. Международный журнал Научный импульс" № 9 (100) часть 3 апреля 2023 (674-680)